

TIL – XALQLARARO DO'STLIK VA MADANIYAT KO'PRIGI**Dilnura Valijon qizi Olimova****TDPU "Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim" yo'nalishi talabasi****<https://doi.org/10.5281/zenodo.15486773>****ANNOTATSIYA**

Ushbu maqolada so'z – inson tafakkurining mahsuli ekanligi, so'zlarni o'rinli qo'llash orqali milliy tarbiyani shakllantirish, til jamiyatda insonlarni birini ikkinchisiga bog'lovchi ma'naviy vosita hisoblanishi hamda tilning madaniylashuvi millatlar orasidagi ko'prik ekanligi haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlari: urf-odat, til, milliylik, madaniyat, ma'naviyat.

ANNOTATION

This article talks about the fact that the word is a product of human thought, the formation of national education through the appropriate use of words, that language is considered a spiritual tool in society that connects people to one and the other, and that the culturing of language is a bridge between nations.

Key words: tradition, language, nationalism, culture, spirituality.

АННОТАЦИЯ

В данной статье речь пойдет о том, что слово-продукт человеческого мышления, о формировании национального воспитания посредством адекватного использования слов, о том, что язык является духовным инструментом в обществе, связывающим людей одно с другим, а также о том, что цивилизация языка является мостом между народами.

Ключевые слова: традиции, язык, национальность, культура, духовность

Bilamizki til – jamoa mulki, umuminsoniy hodisa. Tilda hamma narsa me'yorlarga amal qiladi. Shunday bo'lsada bugungi kunda til ayrim shaxslarning xohish istaklariga bog'liq bo'lmagan holda o'zgarib, rivojlanib boradi. Til – milliy boylik, milliy o'zlik eng ulug' qadriyat! Til nafaqat uni yaratgan xalq, balki milliy guruhlar boshqa madaniyat namoyondalari, til sohiblari tomonidan ham foydalaniladi. O'zbekiston prezidenti Shavkat Mirziyoyev O'zbek tili bayrami va o'zbek tiliga davlat tili maqomi berilganining 35 yilligi bilan O'zbekiston xalqini tabriklab bildirgan fikriga ahamiyat qaratsak, davlat rahbari o'z nutqida "Ma'lumki, milliy til har bir madaniy xalqning tarixi va o'zligini, ruhiy-ma'naviy dunyosini o'zida aks ettiradigan tengsiz boylikdir. Qadimiy tariximizning eng og'ir va sinovli davrlarida ham bizni yagona xalq sifatida birlashtirib, azaliy qadriyatlarimizni asrlar osha bezavol saqlab kelayotgan ona tilimizni har qancha ardoqlasak, ulug'lasak arziydi", degan chuqur ma'noli so'zlarni aytdi. Davlatimiz rahbari tilimizning mavqei naqadar yuqori o'rinda turishini o'zbek tili fani ustozlarimizga rag'batlantirish tariqasida "2025 yil 1 yanvardan boshlab umumta'lim maktablarida milliy sertifikatga ega bo'lgan o'zbek tili o'qituvchilariga maoshining 50 foizi miqdorida oylik ustama haq to'lanishi ona tilimiz fidoyilarining sharaflari mehnatini rag'batlantirishga xizmat qilishi shubhasiz", – degan so'zlarni o'z nutqida aytib o'tgandi. Bugungi kunda mamlakatimizda o'zbek tiliga bo'lgan qadr – qimmatning yuqoriligi, o'zbek tili ustozlarimizga berilayotgana katta imkoniyat eshiklarini ochuvchi kalit bo'ldi desak mubolag'a qilmaymiz. Shavkat Mirziyoyevning so'zlariga ko'ra, davlat tili butun jamiyatni, tili va millatidan qat'i nazar, barcha fuqarolarni yagona xalq sifatida birlashtirishga xizmat qilishi zarur. Achinarlisi shundaki, bugungi kunda o'zbek tilimizga qaratilayotgan ulkan imkoniyatlarga qaramasdan o'zbek tilimizga bo'lgan

sadoqatning yo'qligi. Buning yaqqol misoli sifatida o'zbek tili AQSH, Buyuk Britaniya, Germaniya, Rossiya, Xitoy, Hindiston, Turkiya va shu kabi bir qator davlatlarning 60 ga yaqin universitetlari va 100 dan ziyod maktablarida o'rganilayotgan bir paytda biz qurilgan binolarimizning nomini ingliz yoki rus tillarida nomlab o'tirganligimizni qanday tushunish kerak?! Aynan shu yerda BMT vakillarining til borasida keltirgan faktini eslab o'tsak: "Qachonlardir odamlar so'zlashadigan tillarning soni 7 mingdan 8 mingtagacha yetgan bo'lsa, bugungi kunda sayyoramizda 6 mingta til mavjud bo'lib, ularning 90 foizi yo'qolib ketish arafasida turibdi. Bu asosan sivilizatsiya tufayli madaniyatidan ayrilayotgan kam sonli millatlarning tillaridir. Bu tillarda so'zlovchi aholining ayrimlari yozuvga ega bo'lsa, ayrimlari bundan bebahradir. Masalan, Afrika tillarida so'zlashuvchi aholining 80 foizi hamon o'z yozuvlariga ega emas. Lingvist olimlarning fikricha, yana 25 yildan so'ng hozir muomalada bo'lgan tillarning o'ntasidan bittasi saqlanib qolar ekan". O'zbek tili ham shunday tillar sirasiga kirishiga yana ozgina harakat qilinsa bo'ldi, o'zbek millatining ko'zgusi hisoblanmish til butunlay yo'q bo'ladi qoladi! Qurilgan binolarga boshqa tillarida nom beraversak, zamon talabi deb xodim tomonidan ishchiga ish uchun o'zbek tilining o'zigina kifoya ekanligini bila turib ham rus va ingliz tillarini bilishing kerak degan talab qo'yaversak, oilada o'zbek tili bilan bir qatorda ingliz va rus tillaridagi so'zlarni aralashtirib ishlatishni, tilning ahamiyati haqida faqatgina Til bayrami kunida eslab o'tsak, OAVda o'zbek tiling buzib talqin etilgan variantidagi so'zlar va xato yozilgan so'zlarni ayovsiz namoyish qilishni davom ettiraversak o'zbek tilini yo'qotish uchun 25 yil emas, balki 10 yilning o'zi ham kifoya qiladi. Olib borilgan huquqiy tahlillar natijasida o'zbek tilini rivojlantirish uchun quyida keltirilgan tahlillarni ko'rib chiqishingiz mumkin:

1. Ayni o'zbek tili sohasi mutaxassislaridan O'zbek tilini bilish darajasini tasdiqlovchi sertifikat olish tartibini ishlab chiqish; (Xuddi CEFR, IELTS yoki boshqa chet tili sertifikatlari shu tili mutaxassislaridan so'ralgani kabi);

2. Mjtkning 42-moddasiga: "Davlat organlari va tashkilotlarida ish yuritishda davlat tili haqidagi qonun hujjatlari talablariga rioya etmaslik, mansabdor shaxslarga bazaviy hisoblash miqdorining ikki baravaridan besh baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi" degan o'zgartirish kiritish;

3. OAVda davlat tilining jozibadorligi xususidagi turli xil teledasturlar, davra suhbatlari, reklamalar, animatsion roliklar namoyish qilish; (faqatgina 21-oktyabr sanasida emas, doimiy ravishda olib borilishini ta'minlash joiz);

4. Chet el fuqarolari ishtirokida o'zbek tilini madh etadigan xalqaro insho, tezis, maqola, ocherklar tanlovlarini tashkil qilish va ularni rag'batlantirish (bu taklif ham faqatgina 21-oktyabr Til bayrami kuni uchun emas, doimiy ravishda olib borilishi maqsadga muvofiq). Tahlil natijasida tavsiya etilgan fikrlarga amal qilish asosida o'zbek tilining rivojlanishiga oz bo'lsada o'z hissangizni qo'shishingiz mumkin. Zero, buyuk ma'rifatparvar bobomiz Abdulla Avloniy yozganidek: "Har bir millatning dunyoda borlig'ini ko'rsatadurg'on oyinai hayoti tili va adabiyotidir. Milliy tilni yo'qotmak millatning ruhini yo'qotmakdur". Ushbu fikrlar zahirida ham g'oyat katta ma'no aks etgan.

Xulosa o'rnida aytadigan bo'lsak, har birimiz davlat tiliga bo'lgan sadoqat va muhabbatni mustaqillikka bo'lgan sadoqat deb, davlat tiliga ehtirom va e'tiborni ona Vatanga ehtirom va e'tibor deb bilishimiz, shunday qarashni hayotimiz qoidasiga aylantirishimiz lozimligini butun vujudimiz bilan his etishimiz lozim. Bunday vatanparvar harakatni barcha o'zbek xalqi o'zidan, o'z oilasidan va jamoasidan boshlashi bilanoq o'zbek tilini rivojlantirishga bevosita ulkan

hissa qo'shgan bo'ladi. Jannatmakon yurtimizning o'zbek tili faxr va g'urur bilan baralla tillarda doston bo'lishga arzirli til!

References:

Используемая литература:

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mamatov A.E. "Zamonaviy lingvistika".
2. Irisqulov M.T. "Tilshunoslikka kirish" 2011.
3. Sulaymonov J.B. (2021) Ibn Xaldunning "Muqaddima asarida jamiyat taraqqiyotiga ta'sir qiluvchi omillar talqini. Oriental renaissance: Innovative, educational , natural and socience sciences,1(4),732-737.
4. Saidov.S. (2021). Ibn All-Muqaffaning Islom tarjima san'atiga qo'shgan hissasi. Oriental renaissance: Innovative, educational , natural and socience sciences,1(3).